

OLIY TA'LIMDA MUSIQA MADANIYATINING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYADAGI AHAMIYATI

Boliyev Uchqun Ismatovich

Samarqand davlat pedagogika instituti "Musika ta'limi" kafedrası dotsenti

uchqunboliyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada musika madaniyatining talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada musika vositasida yosh avlodda estetik did, axloqiy qarashlar, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida musika vositasida ma'naviy tarbiya olib borish shakl va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy tarbiya, musika madaniyati, talabalar, estetik tarbiya, qadriyatlar, pedagogik jarayon, talabalarning ma'naviy qiyofasi, musika vositalari, ma'naviy-axloqiy rivojlanish.

Kirish. Musika inson qalbiga bevosita ta'sir etuvchi kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib, uning yordamida talabalarda ezgulik, go'zallik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi fazilatlar uyg'otilishi mumkin. Xususan, milliy kuy-ko'shiqlar va xalq musiqasi vositasida yoshlarning estetik dunyoqarashini kengaytirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkoniyati mavjud. Bugungi globallashtirish va raqamli axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlar, xususan, talabalar orasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Yoshlarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ularni jamiyatga foydali, vatanparvar va madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalashda san'at, ayniqsa, musika madaniyatining o'rni beqiyosdir.

Talabalarda oliy ta'lim tashkilotiga kirishgacha biologik, fiziologik pedagogik, psixologik jihatidan oliy ta'lim olishga tayyor bo'ladilar. Ular fikrlashida konkret va abstrakt tafakkur, bilimlarni tizimlashtirish kabi sifatlar shakllangan bo'ladi. Talaba bu sifatlar zaminida aqliy, axloqiy, estetik, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan kamoloti ancha chuqurlashadi. Ammo shunga qaramay tanlagan mutaxassisligini egallash bilan bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi.

Buning ta'siri ostida o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga befarqlik kuchayishi kuzatilmoqda. Buni oldini olish va talabaga kasbiy bilimlarni chuqur o'rgatish hamda uning shaxsiy sifatleri bilish, yosh xususiyatlerini bilish asosida fan yangilikleri, kasbini chuqur o'rganish ishtiyoqini mustahkamlashni taqozo qiladi. Shu bilan birga talabada mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini tashkil qila olish, qiziqishi va irodasini muhim ishlarga yo'naltira olish sifatlerini tarbiyalash zaruriyati tug'iladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha oliy ta'lim tashkilotiga o'qish talabalar uchun silliq, tekis kechmaydi. Buning boisi shuki, bu davrda ham talaba shaxsida turli ruhiy holatlar-shaxsini shakllanishi bilan bog'liq fazilatlarining takomillashishi davom etadi. Talabalik yoshining ijtimoiy psixologik rivojlanishida belgilovchi xususiyatlaridan biri kasbini o'rganishiga bo'lgan ongli motivning kuchayishidir. Bu yoshda talabalarda axloqiy jarayonlar ancha sust o'ssa-da, ammo shaxsiy xulq atvoridagi fahm-farosat, mustaqillik topqirlik, tashabbuskorlik, mulozamat va munosabatidagi o'zgarishlar keskinroq namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va talabalarda ularni rivojlantirish bo'yicha yurtimizda pedagog olimlarimizdan B.Ziyomammedovning "Pedagogika" nomli oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan o'quv qo'llanmasida ma'naviy-axloqiy rivojlanish vositalari yoritilgan. Sh.Olimovning "Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari" nomli monografiyada esa ma'naviy-axloqiy tarbiya va talabalarda ularni shakllantirish yuzasidan keng mulohaza yuritilgan. B.Umarov, Sh.Olimovlarning tadqiqotlarida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi mustaqillik tafakkurini shakllantirish jihatidan yondashilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son kabi bir qator qarorlarini amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida talabalarni musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar eng muhim omil bo'lib xizmat qilmog'i lozim

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha talaba hayot tajribasini egallashida o'zligini anglash kuchayadi. Bu eng avvalo, shaxsiy hayotining mazmunini anglash, hozir va kelajak uchun turmush rejalarini belgilash, kelajakdagi hayot maqsadini aniqlash hissiyotlari talaba fikri-zikrida muhim o'rin egallaydi. Shu asosda talaba o'rta maktabdagi har kunlik siquv, nazorat so'rashlardan oliy ta'lim tashkilotining nisbatan mustaqil sharoitiga ko'nika boradi. Oliy ta'lim tashkilotidagi tartib-intizom, o'quv mashg'ulotlari, sinov imtihonlarning talablariga o'zini moslashtiradi. Yangi-yangi mikromuhit ichidagi (oliy ta'lim tashkiloti, fakultet)idan uning ichidagi kichik mikromuhit hisoblangan guruh muhitiga ko'nika boshlaydi. Talaba yangi mikromuhitda o'z o'rnini topish, haq-huquqlarini va majburiyatlarini tushina boradi. Talaba uchun shaxslararo munosabatlarning yangicha maydoni paydo bo'ladi.

Musiqa madaniyati tushunchasi va uning tarbiyaviy ahamiyatiga katta. Musiqa madaniyati — bu insoniyatning estetik va ruhiy-ma'naviy tajribasini aks ettiruvchi san'at turi bo'lib, xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va hayotga bo'lgan munosabatini o'zida mujassam etadi [4]. Musiqa inson qalbini tarbiyalash, uni ruhlantirish, tozalash va kuchlantirish xususiyatiga ega. Ayniqsa, yosh avlodga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda musiqa vositasi sifatida keng qo'llanilishi mumkin. Musiqa nafaqat emotsional ta'sir ko'rsatadi, balki axloqiy qadriyatlar - masalan, sabr, toqat, hurmat, mehr-oqibat, vatanparvarlikni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. **Talabalarda musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.** Talabalar - bu mustaqil fikrlovchi, o'z dunyoqarashi shakllanayotgan yoshlardir [4]. Ular orasida ma'naviy tarbiya olib borish jarayonida musiqa vositasi juda ta'sirli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy kuy-qo'shiqlar, maqom san'ati, xalq og'zaki ijodi namunalarning tarbiyaviy kuchi katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonida musiqa darslari, madaniy tadbirlar, konsertlar, kuylash mashg'ulotlari orqali talabalarni estetik didni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni anglaydigan, axloqiy mas'uliyatni his etadigan, jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qiladigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida musiqa orqali tarbiya shakl va usullari pedagogik jarayonda musiqa vositasida tarbiya berishning bir qator shakl va usullari mavjud bo'lib, bular musiqa darslarida nazariy bilimlar orqali musiqa tarixi va janrlarini o'rganish, amaliy mashg'ulotlarda ansambllar, xorlar, individual kuylash, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda kontsertlar, festivallar, musiqiy tadbirlari shular jumlasidandir. Talaba shaxsining musiqa vositasida ma'naviy axloqiy rivojlanishining birinchi bosqichida, u guruhdagi tartib qoidalar xamda faoliyatning shakl va vositalarini faol o'zlashtirish davri hisoblanadi. Talaba subyekt sifatida o'ziga xos xususiyatlarni guruhga tiqishtira olmaydi, balki guruhdagi o'quv, axloqiy, mehnat normalarini o'ziga singdirishga, guruh a'zolariga xos xususiyat, usul va vositalarni egallashga, ularga o'xshashni o'zlashtiradi. Talabada bu davrda "boshqalarday bo'lish", "hammaga o'xshashlik" obyektiv ehtiyoji paydo bo'lib, guruhga maksimal moslashishni boshdan kechiradi [5].

Musiqa vositasida ma'naviy axloqiy tarbiya jarayonini tizimli tashkil qilish guruh raxbaridan ma'lum nazariy va metodologik tayyorgarlikni talab qiladi. Ular eng avvalo musiqa vositasida ma'naviy axloqiy tarbiya jarayoni mohiyati, qonuniyatlari, metodlari va prinsiplari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Bundan tashqari ular ma'naviy axloqiy tarbiyaning tizim, ya'ni tarkibiy qismlari haqida ham chuqur ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Shular asosida musiqa vositasida ma'naviy

axloqiy ular tarbiyaviy ishlarni o‘zaro bog‘liqlik mexanizmini, yaxlit istiqboli va joriy rejalashtirish masalalarini hal qilishlari mumkin bo‘ladi. Musiqa vositasida ma’naviy axloqiy tarbiya umumiy nazariy va tarkibiy qismlarining mazmunini, shakl va metodlarini bilmasdan, bu jarayon ishtirokchilari faoliyatini, tarkibiy qismlar va yo‘nalishlarni aloqadorligi va muvofiqlashtirishni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida shuni ta’kidlash joizki, musiqa madaniyati talabalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Musiqa inson qalbiga bevosita ta’sir etuvchi, uni ezgulikka, go‘zallikka, poklikka undovchi kuchli vositadir. Ayniqsa, milliy kuy-qo‘shiqlar, maqomlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali talabalar ongiga yuksak axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, madaniy ong kabi fazilatlarini singdirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati bu nafaqat estetik zavq, balki ma’naviy boyluk, ruhiy tarbiya, axloqiy kamolotning uzviy tarkibiy qismidir. U yosh avlodni sog‘lom, madaniyatli va ongli etib tarbiyalashda samarali pedagogik vosita sifatida faol qo‘llanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori. www.lex.uz.
3. Norova.Sh.U. Tarbiya samaradorligini oshirishda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish. –/“Xalq ta’limi” jurnali. 2005 yil, 6-son.91-95 betlar.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Miriy-parxish. Tahrir hay’ati: A.Abduvohitov, A.Azizxo‘jayev, M.Aminov, T.Daminov va b. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2003. – 704 b.
5. Umarov B. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda guruh rahbarlari faoliyati.- /“Xalq ta’limi” jurnali, 2003 yil, 6-son, 59-63 betlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
7. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 228 b.